# Протокол закупочной комиссии по конкурсу лот № 147450 на приобретение 86 мактаб биносини жорий таъмирлаш ишлари

Способ проведения электронный

Дата 14.09.2022

Время рассмотрения 14.09.2022 17:01

Конкурсная комиссия Китоб туман Халк таълими булими, (Далее – Комиссия) в составе:

| | | | |
|---|---|---|---|
| **Председатель комиссии** | AVLAYEV AVLOQUL BAYANOVICH | Mudir | Kitob tuman Xalq ta'limi bo'limi |
| **Секретарь комиссии** | NAZIMOVA GULSORA ZIKIRYAYEVNA | Mutaxasis | Kitob tuman Xalq ta'limi bo'limi |
| **Член комиссии** | SIROJOVA MARZIYA ZAYNIDDINOVNA | Xisobchi | Kitob tuman xalq ta'limi bo'limi |
| **Член комиссии** | BOYEVA NILUFAR SAIDJONOVNA | xisobchi | Kitob tuman Xalq ta'limi bo'limi |
| **Член комиссии** | PO'LATOV G'IYOSIDDIN NURIDDINOVICH | Bosh mutaxasis | Kitob tuman Xalq ta'limi bo'limi |
| **Член комиссии** | NAZAROV JAHONGIR SAMIKOVICH | Muxandis | Kitob tuman Xalq ta'limi bo'limi |

Рассмотрев поступивших предложений со стороны участников по опубликованному объявлению на специальном информационном портале от 14.09.2022 года № лота 147450.
Метод оценки предложений – Бальный метод (Весовой коэф.технико-квалификационной части: 80.00 / Весовой коэф. ценовой части: 20.00)

Мин. балл: 20

Предмет закупки:

| **Наименование товара (работы, услуги)** | **Услуга по текущему ремонту нежилых зданий** |
|---|---|
| Подробное описание | Китоб туман ХТБга карашли 86-мактабга жорий таъмирлаш ишлари |
| Количество товара | 1.00 |
| Единица измерения | |
| Цена товара (услуги) за единицу | 30 545 082.00 |
| Стартовая сумма | 30 545 082.00 |
| Валюта | UZS |

По итогам рассмотрения поступивших предложений по технической части участникам присвоены следующие баллы:

Критерий №1 Шунингдек объекти жойини ўрганиш

Тип: Текстовое значение

Описание: объектини жойида ўрганилганлигини тасдиқловчи ҳужжатлар ( объект мутассади вакилларидан) олинган маълумотнома

Обязательность: Не критично

| Наименование участника | Макс балл | Значение участника | Балл участника | Тип оценки | Примечание | Причина |
|---|---|---|---|---|---|---|
| **ООО AZIZBEK QURILISH TA`MIRLASH** | 20 | Суралган хужжатлар | 10 | Экспертная | | |

| Наименование участника | Макс балл | Значение участника | Балл участника | Тип оценки | Примечание | Причина |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | | тақдик этилди | | | | |
| **ABDURAXIM QURILISH TA'MIR XK** | 20 | Суралган хужжатлар тақдик этилди | 20 | Экспертная | | |

Критерий №2 Ишни бажарилиши, тулиқ якунлаш муддати хамда сифати кафолати ҳақида ёзма маълумот

Тип: Текстовое значение

Описание: Ишни бажарилиши, тулиқ якунлаш муддати хамда сифати кафолати ҳақида ёзма маълумот

Обязательность: Не критично

| Наименование участника | Макс балл | Значение участника | Балл участника | Тип оценки | Примечание | Причина |
|---|---|---|---|---|---|---|
| **ООО AZIZBEK QURILISH TA`MIRLASH** | 20 | суралган хужжатлар илова килинди | 10 | Экспертная | | |
| **ABDURAXIM QURILISH TA'MIR XK** | 20 | суралган хужжатлар илова килинди | 20 | Экспертная | | |

Критерий №3 Солиқлар ва йиғимларни тўлаш бўйича муддати ўтган қарздорликнинг мавжуд эмаслиги тўғрисида маълумот

Тип: Текстовое значение

Описание: Солиқлар ва йиғимларни тўлаш бўйича муддати ўтган қарздорликнинг мавжуд эмаслиги тўғрисида маълумот

Обязательность: Не критично

| Наименование участника | Макс балл | Значение участника | Балл участника | Тип оценки | Примечание | Причина |
|---|---|---|---|---|---|---|
| **ООО AZIZBEK QURILISH TA`MIRLASH** | 20 | суралган хужжатлар такдим этилди | 20 | Экспертная | | |
| **ABDURAXIM QURILISH TA'MIR XK** | 20 | суралган хужжатлар такдим этилди | 20 | Экспертная | | |

Критерий №4 Танлов иштирокчиси ҳақида умумий маълумотлар

Тип: Текстовое значение

Описание: Низом ва гувоҳнома, таъсисчи ва раҳбарнинг паспорт нусхалари

Обязательность: Не критично

| Наименование участника | Макс балл | Значение участника | Балл участника | Тип оценки | Примечание | Причина |
|---|---|---|---|---|---|---|
| **ООО AZIZBEK QURILISH TA`MIRLASH** | 20 | суралган хужжатлар такдим этилди | 10 | Экспертная | | |
| **ABDURAXIM QURILISH TA'MIR XK** | 20 | суралган хужжатлар | 20 | Экспертная | | |

| Наименование участника | Макс балл | Значение участника | Балл участника | Тип оценки | Примечание | Причина |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | | тақдим этилди | | | | |

Критерий №5 Охирги 3 йил давомида бажарилган ишлари бўйича Ф-3 (Бажарилган ишлар ҳажми хисоб-фактураси маълумотномаси) ва Ф-5 маълумотлари

Тип: Текстовое значение

Описание: Охирги 3 йил давомида бажарилган ишлари бўйича Ф-3 (Бажарилган ишлар ҳажми хисоб-фактураси маълумотномаси) ва Ф-5 маълумотлари

Обязательность: Не критично

| Наименование участника | Макс балл | Значение участника | Балл участника | Тип оценки | Примечание | Причина |
|---|---|---|---|---|---|---|
| **ООО AZIZBEK QURILISH TA`MIRLASH** | 20 | суралган хужжатлар тақдим этилди | 5 | Экспертная | | |
| **ABDURAXIM QURILISH TA'MIR XK** | 20 | суралган хужжатлар тақдим этилди | 15 | Экспертная | | |

Критерий №6 Ишларни бажаришда фойдаланиладиган танлов иштирокчисининг машина ва механизмлари мавжудлиги ҳақида маълумотнома

Тип: Текстовое значение

Описание: Ишларни бажаришда фойдаланиладиган танлов иштирокчисининг машина ва механизмлари мавжудлиги ҳақида маълумотнома

Обязательность: Не критично

| Наименование участника | Макс балл | Значение участника | Балл участника | Тип оценки | Примечание | Причина |
|---|---|---|---|---|---|---|
| **ООО AZIZBEK QURILISH TA`MIRLASH** | 20 | суралган хужжатлар тақдим этилди | 20 | Экспертная | | |
| **ABDURAXIM QURILISH TA'MIR XK** | 20 | суралган хужжатлар тақдим этилди | 20 | Экспертная | | |

Критерий №7 Шартномани бажариш учун зарур техник, молиявий, моддий, кадрлар ресурсларининг ҳамда бошқа ресурсларнинг мавжудлиги тўғрисида маълумот

Тип: Текстовое значение

Описание: Шартномани бажариш учун зарур техник, молиявий, моддий, кадрлар ресурсларининг ҳамда бошқа ресурсларнинг мавжудлиги тўғрисида маълумот

Обязательность: Не критично

| Наименование участника | Макс балл | Значение участника | Балл участника | Тип оценки | Примечание | Причина |
|---|---|---|---|---|---|---|
| **ООО AZIZBEK QURILISH TA`MIRLASH** | 20 | суралган хужжатлар тақдим этилди | 20 | Экспертная | | |
| **ABDURAXIM QURILISH TA'MIR** | 20 | суралган | 20 | Экспертная | | |

| Наименование участника | Макс балл | Значение участника | Балл участника | Тип оценки | Примечание | Причина |
|---|---|---|---|---|---|---|
| **XK** | | хужжатлар такдим этилди | | | | |

Критерий №8 Ўзига нисбатан жорий этилган банкротлик тартиб-таомилларининг мавжуд эмаслиги тўғрисида

Тип: Текстовое значение

Описание: Ўзига нисбатан жорий этилган банкротлик тартиб-таомилларининг мавжуд эмаслиги тўғрисида

Обязательность: Не критично

| Наименование участника | Макс балл | Значение участника | Балл участника | Тип оценки | Примечание | Причина |
|---|---|---|---|---|---|---|
| **ООО AZIZBEK QURILISH TA`MIRLASH** | 20 | суралган хужжатлар такдим этилди | 5 | Экспертная | | |
| **ABDURAXIM QURILISH TA'MIR XK** | 20 | суралган хужжатлар такдим этилди | 20 | Экспертная | | |

Критерий №9 Танловдаги объектга ўхшаш охирги 3 йиллик иш тажрибаси

Тип: Текстовое значение

Описание: Танловдаги объектга ўхшаш охирги 3 йиллик иш тажрибаси

Обязательность: Не критично

| Наименование участника | Макс балл | Значение участника | Балл участника | Тип оценки | Примечание | Причина |
|---|---|---|---|---|---|---|
| **ООО AZIZBEK QURILISH TA`MIRLASH** | 20 | суралган хужжатлар такдим этилди | 20 | Экспертная | | |
| **ABDURAXIM QURILISH TA'MIR XK** | 20 | суралган хужжатлар такдим этилди | 15 | Экспертная | | |

Оценка участников финансовой части составила:

| Наименование участника | Стартовая сумма | Предлагаемая сумма | Сумма с учетом конвертации (UZS) | Применение преференции | Общее значение (UZS) | Дата предложения | Оценка стоимости (балл) |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| **ООО AZIZBEK QURILISH TA`MIRLASH** | 30 545 082.00 | 30 505 000.00 UZS | 30 505 000.00 | 00.00 | 30 505 000.00 | 14.09.2022 14:16:59 | 19.74444 |
| **ABDURAXIM QURILISH TA'MIR XK** | 30 545 082.00 | 30 115 200.00 UZS | 30 115 200.00 | 00.00 | 30 115 200.00 | 14.09.2022 14:37:03 | 20 |

Итоговая оценка участников включая финансовой части составила:

| Наименование участника | Общий балл по | Общий балл по | Итоговый |
|---|---|---|---|

| | технической части | финансовой части | балл |
|---|---|---|---|
| **ООО AZIZBEK QURILISH TA`MIRLASH** | 53.3336 | 19.74444 | 73.07804 |
| **ABDURAXIM QURILISH TA'MIR XK** | 75.5552 | 20 | 95.5552 |

Закупочная комиссия по конкурсу лот № 147450 от 14.09.2022 года на приобретение 86 мактаб биносини жорий таъмирлаш ишлари определила победителем:

ABDURAXIM QURILISH TA'MIR XK
302849634

и резервный исполнитель: ООО AZIZBEK QURILISH TA`MIRLASH (303390598)

Проголосовали

| Комиссия | Ф.И.О. | Голосование | Комментарии |
|---|---|---|---|
| **Председатель комиссии** | AVLAYEV AVLOQUL BAYANOVICH | Согласен | |
| **Член комиссии** | SIROJOVA MARZIYA ZAYNIDDINOVNA | Согласен | |
| **Член комиссии** | BOYEVA NILUFAR SAIDJONOVNA | Согласен | |
| **Член комиссии** | PO‘LATOV G‘IYOSIDDIN NURIDDINOVICH | Согласен | |
| **Член комиссии** | NAZAROV JAHONGIR SAMIKOVICH | Согласен | |

Протокол закупочной комиссии подписан посредством ЭЦП

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

QASHQADARYO VILOYATI
KITOB TUMAN HOKIMLIGI

*Юридик шахсни давлат рўйхатидан ўтказиш тўғрисида*

# *Г У В О Ҳ Н О М А*

**Реестрдаги тартиб рақами № 3530** **№ 0003530**

**2014 йил 3 март**

Мазкур гувоҳнома фирма номи:_ «ABDURAXIM QURILISH TA'MIR »_

_________________________________ хусусий корхонаси__________

| | |
|---|---|
| Ташкилий-хуқуқий шакли : | ТХШ 1010 |
| Мулкчилик шакли : | МШ 114 |
| Почта манзили : | МХОБТ 1710232809 |
| Юридик шахс коди : | КТУТ 25069211 |
| Тармоқ коди : | ХХ ТУТ 61110 |
| Солиқ тўловчининг идентификацион рақами : | СТИР 302849634 |

**Қўшимча маълумотлар:**

М.Ў.

Китоб туман хокимлиги хузуридаги
тадбиркорлик субъектларини рўйхатдан
ўтказиш инспекцияси бошлиғи

Ш.Шукуров

«TASDIQLAYMAN»

Kitob tumani

Xalq ta'limi bo'limi mudiri,

Komissiya raisi

__________________A.Avlaev

# KITOB TUMANI XALQ TA'LIMI BO'LIMGA QARASHLI 86 - MAKTABNING JORIY TA'MIRLASH ISHLARINI ENG YAHSHI TAKLIFLARNI TANLASH O'TKAZISH BO'YICHA KOMISSIYA YIG'LISHI

## B A Y O N N O M A S I №-14

Kitob tuman 2022 yil «19» sentabr

Ishtirok etdilar:

1. Avlaev Avloqul — Xalq ta'limi bo'limi mudiri, Rais
2. Nazarov Jahongir — Maxsus ta'mirlash ekspluatatsiya xizmati boshlig'i a'zo
3. Pulatov G'iyos — Maxsus ta'mirlash ekspluatatsiya xizmati bosh mutaxassisi, a'zo
4. Boeva Nilufar — Shartnoma xisobchisi, a'zo
5. Sirojova Marziya — Shartnoma xisobchisi, a'zo
6. Nazimova Gulsara — kommunal to'lov boyicha mutaxassisi kotib

## KUN TARTIBI:

Kitob tumani Xalq ta'limi bo'limi joriy ta'mirlash ishlarini eng yahshi taklifni tanlash (tender) o'tkazish bo'yicha

(A. Avlaev., J. Nazarov., G'. Pulatov., N. Boeva., M. Sirojova., G. Nazimova )

Bo'lim tomonidan 2022 yil **07 sentabr**da O'zbekiston Respublikasi Tovar va xom-ashyo birjasini electron portaliga Kitob tumanidagi Xalq ta'limi bo'limida joriy ta'mirlash ishlarini bo'yicha № **147450** – lot raqami bilan e'lon joylashtirildi. Mazkur lot bo'yicha 2022 yil **14 sentabr** dagi eng yahshi takliflarni tanlash savdosini o'tkazish bo'yicha davlat xaridlari komissiyasining elektron portali orqali shakllangan 'Kitob tumani Xalq ta'limi bo'limi joriy ta'mirlash ishlarini'' bayonnomasiga asosan e'lon yakuniga ko'ra Komissiya a'zolari tomonidan **Abdurahim qurilish ta'mir X/K** g'olib deb topilganligini inobatga olib

## QAROR QILINDI:

1. O'zbekiston Respublikasining 2021 yi  22 apreldagi ''Davlat xaridlari tug'risida''gi 684-sonli Qonunining 62-moddasi 3-bandiga asosan komissiya bayonnomasi davlat xaridlari elektron tizimiga muxokoma qilish uchun ikki ish kuniga joylashtirildi. Ikki ish kuni davomida davlat xaridlari elektron tizimiga joylashtirilgan bayonnoma bo'yicha xech qanday e'tirozlar yoki qo'shimcha takliflar kelib tushmaganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.
2. Kitob tuman Xalq ta'limi bo'limi bosh xisobchisi S.Xujamurodovga:
   Yuqoridagilardan kelib chiqib xamda komissiya a'zolarining 2022 yil **14 sentabr** dagi elektron bayonnomasiga asosan g'olib **Abdurahim qurilish ta'mir X/K** bilan qonunchilikda o'rnatilgan tartibda shartnoma tuzilsin.

| | | | |
|---|---|---|---|
| 1 | Avlaev Avloqul | Xalq ta'limi bo'limi mudiri<br>Rais | ____________ |
| 2. | Nazarov Jahongir | Maxsus ta'mirlash ekspluatatsiya xizmati boshlig'i<br>a'zo | ____________ |
| 3. | Pulatov G'iyos | Maxsus ta'mirlash ekspluatatsiya xizmati bosh mutaxassisi,<br>a'zo | ____________ |
| 4. | Boeva Nilufar | Shartnoma xisobchisi,<br>a'zo | ____________ |
| 5. | Sirojova Marziya | Shartnoma xisobchisi<br>a'zo | ____________ |
| 6. | Nazimova Gulsara | kommunal to'lov boyicha mutaxassisi,<br>kotib | ____________ |

**SH A R T N O M A**
**( Joriy ta'mirlash)**

19«9»2022 yil. **140-4-62-XT/2022-son**

Keyingi o'rinlarda «Buyurtmachi» deb yuritilgan **Kitob tuman Xalq ta'limi bo'limi** nomidan **A.Avlaev** bir tomondan va Nizom asosida ish yurituvchi va keyingi o'rinlarda «Bosh pudratchi» deb yuritiladigan **"ABDURAHIM QURILISH TA'MIRLASH" X/K** nomidan **Sanaqulov D.** ikkinchi tomondan mazkur shartnomani kuyidagi mazmunda tuzdilar

## 1.SH A R T N O M A M A Z M U N I.

1.1. «Bosh pudratchi» mazkur shartnoma shartlariga ko'ra «Buyurtmachi» balansida bo'lgan 86-maktab binosida joriy ta'mirlash ishlarini loyiha asosida bajarib berishni o'z zimmasiga oladi.
1.2. «Buyurtmachi» esa «Bosh pudratchi» ga qurilish ishlarini bajarish uchun zarur bo'lgan sharoitlarni, tegishli loyiha xujjatlari bilan ta'minlash, bajarilgan joriy ta'mirlash ishlarini tegishli tartibda qabul qilib, to'lov ishlarini amalga oshirish majburiyatlarni o'z zimmasiga oladi.
1.3. Obyektda joriy ta'mirlash ishlarini bajarish muddati : shartnoma kuchga kirgan sanadan 2022-yil 31-dekabrgacha.

## 2. SH A R T N O M A B A X O S I.

2.1. Mazkur shartnoma bo'yicha «Bosh pudratchi» tomonidan bajariladigan ishlar qiymati barcha soliqlar, yig'imlar va ajratmalarni o'z ichiga olgan holda 30115200 (O'ttiz million bir yuz o'n besh ming ikki yuz) so'm.

2.2. Qurilish bahosi va muddati mazkur shartnomada nazarda tutilishi mumkin bo'lgan qurilish hajmining oshishi yoki kamayishini joriy ta'mirlash ishlari bajarilgunga qadar xukumat qaroriga ko'ra qiymatliklar o'zgartirilganligini fors-major holatlarini istisno etgan holda qat'iy sanaladi.

2.3. Tegishli asoslar mavjud bo'lgan taqdirdagina shartnoma bahosiga oid o'zgartirishlar shartnomaga qo'shimcha bitim bilan rasmiylashtiriladi.

## 3. SH A R T N O M A B U Y I C H A M A J B U R I Y A T L A R I.

«Bosh pudratchi»:
3.1. Barcha joriy ta'mirlash ishlarini mazkur shartnomaga ilova kilingan loyixa xujjatlarida ko'rsatilganga hajmda va belgilangan muddatda o'zining kuchlarini yoki jalb qilingan uchinchi shaxslar yordamida bajarish hamda shartnoma shartlariga ko'ra «Buyurtmachi»ga topshirish.
3.2. O'zi jalb qilgan uchinchi shaxslar tomonidan bajarilgan joriy ta'mirlash ishlari sifatiga, muddati uchun javobgar bo'lish.
3.3. «Buyurtmachi»ni o'zi bilan uchinchi (Sub pudratchi) shaxslar o'rtasida tuzilayotgan shartnoma haqida habardor qilish.
3.4. «Buyurtmachi» yetkazib bergan va o'z kuchi mablag'i evaziga tashib keltirilgan qurilish materiallari va konstuktiyalarini ularga zarar yetmagan holda saqlash.
3.5. Joriy ta'mirlash ishlari bajarilayotgan obyektda ekalogiya va tozalikka rioya etgan holda texnika va yong'in xavfsizligi tadbirlarini ta'minlash.
3.6. O'zi tomonidan keltirilgan qurilish materiallarining loyihada nazarda tutilgan talablarga (standart va x.k) javob berishini ta'minlash.
«Buyurtmachi»:
3.7. Kalendar ish rejasida belgilangan tartibda lekin shartnoma imzolangan kundan e'tiboran 5 kun muddat ichida obyekt maydoni va loyiha xujjatlarini «Bosh pudratchi» ga topshirish.
3.8. Shartnomada nazarda tutilgan miqdorda va muddatda bajarilgan joriy ta'mirlash ishlari uchun «Bosh pudratchi» ga haq tulash.
3.9. «Bosh pudratchi» ning yozma talab, iltimos to'lov va e'tirozlari 5 kunlik muddat ichida o'rganilib chiqib munosabat bildirish.
3.10. Kalendar ish rejasi asosida bajarilgan ishlarni tegishli tartibda qabul qilib olish.

## 4. TO'LOV VA XISOB-KITOBLAR

4.1. Ushbu shartnoma buyicha tulov Uzbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2016 yil 22 dekabrda №2850-son bilan ruyxatdan o`tkazilgan "Uzbekiston Respublikasi budjet tizimi budjetlarining g'azna ijrosi koidalari"ga asosan budjet tashkilotlarini tovar (ish.xizmat) yetkazib beruvchilar bilan tuzilgan shartnomalari majburiy tarzda G'aznachilik bulinmasidan ruyxatdan utkazilgandan sung bajariladigan ishlar buyicha 30 kun ichida oldindan 30% tulov amalga oshiriladi va kolgan 70% tulovi takdim etilgan xisob-fakturalarga asosan amalga oshiriladi.

4.2. Bajarilgan ishlarda aniqlangan kamchiliklar bartaraf etilmagunga qadar to'lov ishlari kechiktirilishi mumkun.

## 5. ISHLARNI OLIB BORISH VA KAFOLAT MUDDATI.

5.1. «Buyurtmachi» qurilish obyektiga o'z vakili «Texnik nazoratchi» tayinlaydi. U «Buyurtmachi» nomidan ishlarning hajmi va sifati, materiallari hamda boshqa ashyolarni shartnoma shartlari va loyiha xujjatlari talablariga mosligini tekshirib, bajarilgan ishlar dalolatnomasini rasmiylashtiradi.
5.2. Joriy ta'mirlash ishlari mazkur shartnomaga ilova qilingan ish grafigi, kalendar ish rejasiga ko'rsatilgan muddatgacha «Bosh pudratchi» tomonidan bajariladi.
5.3. Qurilish maydonida bajarilgan Joriy ta'mirlash ishlarini loyiha xujjatlari va qurilish qonun qoidalari talablariga javob berish uchun «Bosh pudratchi» ma'sul sanaladi.
5.4. Obyekt va unga kiradigan muhandislik tizimlarini qurilish materiallari, jihozlaridan foydalanish va ishlarini kafolatlik muddati tomonlar qurilishi tugallangan obyektni qabul qilib olish to'g'risidagi dalolatnomani imzolagandan so'ng 12 oy obyektning kafolatli muddati 24 oy deb belgilanadi.
5.5. Sifatsiz bajarilgan ishlarni qayta tiklash uchun sarf qilingan qo'shimcha harajatlar shartnoma qiymatidan tashqari bo'lib, aybdor hisobidan qoplanadi.
5.6. Sifatsiz va kamchilik bilan bajarilgan ish aniqlanganligi xususidagi dalolatnoma bilan tomonlar kelisha olmasalar, ekspertiza tayinlanadi yoxud sud tartibi hal qilinadi.

## 6. QURILISHNI KONSERVATSIYALASH VA FORS-MAJOR HOLATI.

6.1. Qurilishni konservatsiyalashda taraflar majburiyatlarining ijro muddatini bartaraf etib bo'lmaydigan vaziyat (fors-major) 1 oydan ortiq davom etadigan bo'lsa, qurilishni noma'lum muddatga to'xtatish (konservatsiyalash) uchun chora-tadbirlarni ko'rishni muxokama etadilar. Bir tuxtamga kelinmasa, 2 oy mobaynida taraflar shartnomani bekor qilishni talab qilishga haqlidirlar.

6.2. Agarda tomonlar majburiyatlarini qisman yoki To'la ijro eta olmay qolishi tabiiy hodisalar, harbiy xarajatlar, boshqa bartaraf etib bo'lmaydigan boshqa kuchlar sababli sodir bo'lgan bo'lsa, Ushbu holatlar shartnoma ijrosiga bevosita ta'sir etadigan bo'lsa, tomonlar shartnoma bo'yicha majburiyatlarini qisman yoki Tula ijro etolmay qolgani uchun javobgarlikdan ozod bo'ladilar.
6.3. Qurilish obyektga to'laligicha konservatsiya qilish haqidagi qaror qilinga kunga qadar bajarilgan ishlar haqi to'liq to'lanadi.

## 7. SHARTNOMANI BEKOR QILISH.

7.1. «Buyurtmachi» «Bosh pudratchi» ning aybi bilan qurilish grafik rejasi va loyiha shartlarida ko'rsatilgan ishlarning bajarilishi bir oydan ortiq vaqtda to'xtatilganda, ish sifati buzilganda, «Bosh pudratchi» yuridik shaxs sifati qonunda belgilangan tartiblarda aniqlanganda, aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etishdan asossiz bosh torttirganda qonun xujjatlariga muvofiq boshqa asoslar bo'yicha shartnomaning bekor qilinishini talab qilish xuquqiga ega.
7.2. «Bosh pudratchi» «Buyurtmachi» tomonidan asossiz ravishda 1 oydan ortiq vaqt mobaynida Qurilish ishlari tuxtatilib qo'yilganda, moliyalashtirish to'xtatib quyish xuquqiga egadir.
7.3. Shartnomani bekor qilish haqidagi talablar taraflar bir-birini yozma ravishda xabardor qilingan holda 1 oylik muddat ichida ko'rib chiqilib, hal qilinadi. Shartnomani asossiz bir tomonlama bekor qilinishiga yo'l qo'yilmaydi.
7.4. Shartnoma bekor qilinganda aybdor tomon ikkinchi tomonga yetkazilgan zarar va boy berilgan foydani to'laydi.

## 8. TOMONLARNING MULKIY JAVOBGARLIGI.

8.1. «Buyurtmachi» «Bosh pudratchi» ga har bir kun uchun majburiyatining bajarilmagan qismini 0,4 % miqdorida peniya to'laydi. Peniya bajarilmagan majburiyatning 50 % idan oshmasligi lozim .
8.2. Shartnomaga muvofiq bajarilgan ishlar hajmini tasdiqlashdan asossiz bosh tortganligi uchun «Buyurtmachi» «Bosh pudratchi» ga o'zini tasdiqlashni rad etgan so'mmaning 5 % miqdorida jarima to'laydi.
8.3. «Bosh pudratchi» «Buyurtmachi»ga o'z majburiyatlarini bajarmagan qismini 0,5 % miqdorida har bir kechiktirilgan kun uchun peniya to'laydi. Peniya bajarilmagan majburiyatining 50 % idan oshmasligi lozim .
8.4. «Bosh pudratchi» tomonidan bajarilgan ishlar sifati shartnomada va loyihada belgilangan va boshqa qonun talablariga javob bermasa, sifatsiz bajarilgan ish hajmi qiymatining 10 % miqdorida «Buyurtmachi» ga jarima to'laydi.
8.5. «Buyurtmachi» dan olingan foydalanilmagan qurilish materiallari va boshqa ashyolar bir oylik muddat ichida qaytarilmasa, qaytarilmagan mulkning 10 % miqdorida jarima qo'llanishiga sabab bo'ladi.

## 9. ALOHIDA QOIDALAR.

9.1. «Bosh pudratchi» o'z kuchi mablag'i bilan olib kelgan qurilish materiallari va boshqa ashyolarning shartnoma va hamda loyiha talablariga mos kelishi haqida sertifikat texnik pasportlari bo'lishini ta'minlashi shart.
9.2. Qurilish materiallari va boshqa ashyolar «Bosh pudratchi» tomonidan markazlashtirilgan omborlar orqali «Bosh pudratchi» ning yozma (trebovaniye) orqali beriladi.
9.3. Joriy ta'mirlash ishlarini bajarish uchun zarur bo'lgan transport vositalari maxsus transportlar «Yordamchi pudratchi» ixtiyorida bo'lmasa, «Bosh pudratchi» tomonidan markazlashtirilgan usulda ta'minlanadi.

9.4. Qurilish materiallari va boshqa ashyolardan hamda transport vositalaridan foydalanganlik uchun hisob-kitob qilish shartnoma doirasida amalga oshiriladi.

9.5. Shartnoma loyiha hamda qonun talablariga javob bermaydigan material va uskunalardan foydalanish ta'qiqlanadi.

## 10. SHARTNOMAGA QO'SHIMCHA VA O'ZGARTIRISHLAR KIRITISH VA NIZOLARNI HAL QILISH TARTIBI.

10.1. Shartnomaga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish ikkala tomonni roziligiga asosan yozma bitim shaklida tasdiqlanadi.

10.2. Mazkur shartnoma bo'yicha barcha kelishmovchilik va nizolar o'zaro muzokaralar yo'li bilan hal etiladi.

10.3. Tomonlar yuzaga kelgan nizo bo'yicha o'zaro kelishuvga erishmagan taqdirda, mazkur nizolar belgilangan tartibda tegishliligi bo'yicha Iqtisodiy sudlar tomonidan hal etiladi.

## 11.KORRUPSIYAGA QARSHI TALABLAR

11.1.Tomonlar: - Tomonlar, ularning affilangan (o'zaro bog'langan) shaxslari va xodimlari, ushbu Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishlari davomida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlari talablarining buzilishiga olib keladigan va/yoki korrupsiya xarakteriga ega bo'lgan, shu jumladan (ammo bu bilan cheklanmay) pora berish yoki berishni va'da qilish, ta'magirlik, pora olishga bevosita yoki bilvosita rozi bo'lish xattiharakatlari/harakatsizliklarini sodir etmaydilar. - Tomonlar, ularning affilangan (o'zaro bog'langan) shaxslari va xodimlari boshqa Tomonning xodimlari yoki vakolatlangan vakillarini qandaydir tarzda rag'batlantirishdan, shu jumladan pul summalari, sovg'alarni taqdim etish, ularning manziliga xizmatlarni beg'araz ko'rsatish yoki bu xodim yoki vakolatlangan vakil tomonidan uni rag'batlantiruvchi Tomon foydasiga qandaydir xattiharakatlarni/harakatsizliklar bajarilishini ta'minlashga qaratilgan ishlarni bajarishdan voz kechadilar deb ma'lum qiladilar.

11.2. Tomonda ushbu Shartnomaning 11.1-bandidagi talablarni buzish sodir etilganligi yoki sodir etilishi mumkinligi to'g'risidagi shubhalar yuzaga kelgan holda, tegishli Tomon bu haqda ikkinchi Tomonni xabardor qilish, korrupsiya bilan kurashish sohasidagi O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarining normalari buzilganligi faktining rad etib bo'lmaydigan dalillari mavjud bo'lgan holda esa – amaldagi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda vakolatlangan organlarni ham xabardor qilish majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

## 12. SHARTNOMANING AMAL QILISH MUDDATI.

12.1. Shartnomani amal qilish muddati shartnoma ikki tomon o'rtasida imzolanib, hududiy G'aznachilik bo'linmasi tomonidan ro'yxatga olingan kundan boshlab yuridik kuchga ega bo'ladi va 31- dekabr 2022-yilgacha amal qiladi.

## 13. TOMONLARNING REKVIZITLARI.

**"BUYURTMACHI"**

**Nomi:** Kitob tuman Xalq ta'limi bo'limi

**Manzili: Kitob tumani B.I.Yo'li 3 uy**
**Shx/r:100022860102327092100075123**
**O'zb.Res.Moliya Vazir.G'aznachiligi**

**INN: 200 694 002 IFUT: __________**
**Bank: Markaziy bank Toshkent sh.**
**MFO: 00014 INN 201 122 919**
**x/r:**23402000300100001010

**Raxbar: _______________ A.Avlaev**

**"PUDRATCHI"**

**Nomi:** "ABDURAHIM QURILISH TA'MIRLASH" X/K

**Manzili:** Kitob tumani Xalovot q
**X/r:** 2020 8000 1002 9227 0001

**INN:** 302 849 634
**Bank:** Toshkent sh.ATB qishloqqurilish bank
**MFO:** 01037

**Raxbar: ___________ Sanaqulov D**

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QASHQADARYO VILOYATI KITOB TUM. XUSUSIY KORXONASI «ABDURAXIM QURILISH TA'MIR»

| | | |
|---|---|---|
| | Hujjat **elektron raqamli imzo** orqali imzolangan.<br>Elektron raqamli imzoning haqiqiyligini tekshirish uchun **QR Code** ni skanerlang. | |
| | Imzolovchi F.I.SH. | AVLOQUL AVLAYEV BAYANOVICH |
| | Imzolangan sana | 19 сен 2022 17:38 |
| | Hujjat kodi | **FM6151255656** |
| | Hulosa kodi | **ID5164288576** |

# YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO'G'RISIDA HUQUQIY XULOSA

1. **Loyihaning turi:** Shartnoma.

2. **Loyihaning nomi:**

**"ABDURAHIM QURILISH TA'MIRLASH" X/K** bilan Kitob tuman Xalq ta'limi bo'limi o'rtasida 86-maktab binosini joriy ta'mirlash haqida.

Mazkur shartnoma bo'yicha «Bosh pudratchi» tomonidan bajariladigan ishlar qiymati barcha soliqlar, yig'imlar va ajratmalarni o'z ichiga olgan holda **30115200** (O'ttiz million bir yuz o'n besh ming ikki yuz):

**3. Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma'lumot:**

Kitob davlat Xalq ta'limi bo'limi tomonidan ishlab chiqilgan va markazga huquqiy ekspertizadan o'tkazish uchun yuborilgan.

Loyiha amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan va uni qabul qilish maqsadga muvofiq.

**Markaz boshlig`i** **S.Rahmonov**